O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari Vazirligi

O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat Institut

Musiqiy- nazariy fanlar kafedrasi

Musiqa nazariyasi fanidan

1. MAVZU: Interval. Pog'onalar va tonlar miqdori

Bajardi:

Xalq ijodiyoti yunalishi

"Xalq ashula va raqs" raxbarlik

2-bosqich talabasi

QABUL QILDI

Fan uqituvchisi

Yafasova E.U

TOSHKENT 2014

Reja:

I. Kirish:
II. Asosiy qism:

1. Orttirilgan va kamaytirilgan (xromatik) intervalning hosil bo`lishi
2. Interval. Pog‘onalar va tonlar miqdori
3. Intervallarning aylanishi
4. Xromatik intervallar. Intervallar engarmonizmi.
5. Diatonik intervallar
6. Konsonans va dissonans intervallari

III. Xulosa

IV. Adabiyotlar

I Kirish

Musiqa – borliqni, uning barcha rang-barangligi bilan badiiy obrazlarda namoyon qiluvchi, unda ro`y berayotgan voqealarga nisbatan insonning munosabatlarini aks ettiruvchi san'atning bir turidir. Shu bilan birga musiqa boshqa san'at turlaridan farq qiladi, chunki uning asosiy "qurilish ashyosi" tovushdir.

Musiqa - *muzalar* san'ati hisoblanadi. Musiqa so`zi ham shundan kelib chiqqan. *(muzalar - qadimgi yunon mifologiyasidagi san'at va fan ma'budalari. Ular shoir va san'atkorlarga ilhom beradi deb hisoblangan. Shuning uchun antik poeziya asarlarining boshida, ko`pincha muzalarga murojaat qilingan. Antik shoirlardan Gesiod (7-asr) 9 muzani eslatib o`tadi. Xususan, Klio - tarix,* ***Evterpa – poeziya va musiqa,*** *Taliya – komediya, Melpomena – tragediya, Terpsixora – o`yin, Ereto – muhabbat lirikasi, Poligimniya – madhiyalar, Uraniya – astronomiya, Kalliopa – epos ma'budalaridir. Apollon muzalar xudosi hisoblangan. Muzalar obrazi Evropa tasviriy san'atida o`z ifodasini topgan.)*

Musiqa adabiyot, she'riyat, teatr yoki kino kabi kabi mazmunni aniq ifoda qilolmaydi. Shuningdek, u tasviriy san'at yoki haykaltaroshlik kabi aniq obrazlar ham yaratolmaydi. Musiqaning o`ziga xos xususiyati – mazmunni yuksak umumlashma darajasida ifodalash va birinchi navbatda inson his-tuyg`ulari doirasiga ta'sir qilishdan iboratdir. Ro`y berayotgan har bir hodisa, voqea, taassurotlar insonda shodlik, g`am-hasrat, nafrat, hayron qolish, mayinlik, hayratlanish kabi oddiy so`z bilan tasvirlab bo`lmaydigan boshqa ko`plagan javob his-tuyg`ularini uyg`otadi. Musiqa inson holatlarining ana shunday turli-tuman ko`rinishlarni ifodalashi mumkin.

O`zbekiston hududidan topilgan qazilma yodgorliklar, shuningdek bizgacha etib kelgan yozma manbalar o`zbek xalqi musiqa merosining juda qadimiyligidan dalolat beradi. Og`zaki

an'anadagi professional musiqa san'ati 1-asrlarda yuzaga kelgan. Musiqiy ijod sohasida ham, ijrochilik sohasida ham yuksak natijalarga erishilgan. Professional musiqaning nazariy asoslarini Forobiy (9-10 asrlar), Abu Ali ibn Sino (10-11 asrlar), ibn Zayliy (11 asr), Xorazmiy (11 asr), Faxriddin ar-Roziy (12 asr), Safiuddin al-Urmaviy (13-asr), Mahmud ash-Sheroziy (13-asr), Xoja Abduqodir Marog`iy (14-asr), Abdurahmon Jomiy (15-asr), keyinchalik Darvishali Changiy (16-17 asr) va boshqa olimlar, mualliflarning asarlarida yoritilgan.

Og`zaki an'anadagi professional musiqa san'ati - janrlar va ijro an'analarining murakkabligidan, faqat og`zaki tarzda, ustoz-shogird shaklida o`rgatilgan, ya'ni ijrochi shogirdlar ustoz ashulachi va sozandalardan uzoq yillar davomida ta'lim olganlar. O`rta asrlardayoq ma'lum bo`lgan (Forobiy, Mahmud ash-Sheroziy va boshqalarning risolalarida) nota yozuvlari musiqa amaliyotida qo`llanilmagan. 19-asrning 3-choragida Xorazmda ixtiro qilingan tanbur chizig`i saroy maqomchilarining tor doirasida ishlatilgan, xolos.

II. Asosiy qism

1. Orttirilgan va kamaytirilgan (xromatik) intervalning hosil bo`lishi

Har bir diatonik interval orttirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Bunga interval tovushlaridan biri (cho`qqi yoki asos)ni xromatik yarim tonga ko`tarish yoki pasaytirish yordami bilan erishiladi.

Orttirilgan intervallar – sof va katta intervallardan, kamaytirilgan intervallar esa sof va kichik intervallardan hosil bo`ladi.

Faqat sof.1 bundan mustasno bo`lib, kamaytirilmaydi. Barcha orttirilgan va kamaytirilgan intervallarga **xromatik intervallar** ham deyiladi.

Uchtonliklar (ya'ni, ort.4 va kam.5 intervallari)ni, tovushqatorning asosiy poronalari orasida hosil bo`lib, diatonik interval bo`lgani uchun xromatik intervallar qatoriga qo`shish mumkin emas.

Orttirilgan intervallar ikki xil usul bilan:

a) interval cho`qqisini ko`tarish;



b) interval asosini pasaytirish yo`li bilan hosil qilinadi.



II. Asosiy qism

1. Orttirilgan va kamaytirilgan (xromatik) intervalning hosil bo`lishi

Har bir diatonik interval orttirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Bunga interval tovushlaridan biri (cho`qqi yoki asos)ni xromatik yarim tonga ko`tarish yoki pasaytirish yordami bilan erishiladi.

Orttirilgan intervallar – sof va katta intervallardan, kamaytirilgan intervallar esa sof va kichik intervallardan hosil bo`ladi.

Faqat sof.1 bundan mustasno bo`lib, kamaytirilmaydi. Barcha orttirilgan va kamaytirilgan intervallarga **xromatik intervallar** ham deyiladi.

Uchtonliklar (ya'ni, ort.4 va kam.5 intervallari)ni, tovushqatorning asosiy poronalari orasida hosil bo`lib, diatonik interval bo`lgani uchun xromatik intervallar qatoriga qo`shish mumkin emas.

Orttirilgan intervallar ikki xil usul bilan:

a) interval cho`qqisini ko`tarish;



b) interval asosini pasaytirish yo`li bilan hosil qilinadi.



Kamaytirilgan intervallar ham ikki xil usul bilan:

a) interval cho`qqisini pasayishidan;



b) interval asosini ko`tarilishidan hosil bo`ladi.



Diatonik intervallardan hosil bo`ladigan orttirilgan va kamaytirilgan (xromatik) intervallar jadvali

t\r	diatonik intervallar	tonlar miqdori	kamay. intervallar	ort. intervallar
1.	sof 1	0	-	ort.1 - 0,5 t
2.	kich.2	0,5	kam.2 - 0 t.	-
3.	kat.2	1	-	ort.2 - 1,5 t
4.	kich.3	1,5	kam.3 - 1 t.	-
5.	kat.3	2	-	ort.3 - 2,5 t
6.	sof. 4	2,5	kam. 4 – 2 t	-
7.	ort.4	3	-	-
8.	kam.5	3	-	-
9.	sof.5	3,5	-	ort.5 – 4 t
10.	kich.6	4	kam.6 - 3,5 t	-
11.	kat.6	4,5	-	ort.6 - 5 t

12.	kich.7	5	kam.7 - 4,5 t	-
13.	kat.7	5,5	-	ort.7 – 6 t
14.	sof.8	6	kam.8 - 5,5 t	-

Interval. Pog'onalar va tonlar miqdori

Interval[1] ikki tovushning balandlik bo'yicha uyg'unlashuvidir.

Interval tovushlari birin-ketin chalinsa ***melodik interval***, bir vaqtning o'zida chalinsa ***garmonik interval***ni hosil qiladi. Intervalning pastki tovushi uning *asosi*, yuqorigi tovushi esa *cho'qqisi* deyiladi.

Intervallar pastdan yuqoriga qarab o'qiladi, faqat pasayuvchi melodik interval uning yo'nalishi aytilib, pastga qarab o'qiladi.

Interval pog'onalar miqdori va tonlar miqdori bilan o'lchanadi. ***Pog'onalar miqdori,*** ya'ni *miqdoriy kattaligi,* interval hajmidan darak berib, u qamrab olgan pog'onalar sonini raqam bilan ko'rsatadi hamda interval o'ziga uning pog'onalar soniga muvofiq lotincha nom beradi. **Tonlar miqdori,** ya'ni *sifat kattaligi,* intervalning asosidan cho'qqisigacha ton va yarim tonlikar yig'indisini aytadi.



[1] *Interval* – (lotincha *intervallum*) – oraliq.

Intervallar o'zining hajmi (zich-kengligi) bo'yicha ikkita guruhga ajraladi:

1) oktava chegarasida hosil bo'lgan ***oddiy intervallar***.
2) oktavadan keng bo'lgan ***tarkibli intervallar***.

Oddiy intervallar quyidagicha nomlanadi:

Prima yoki unison[2]–1–bitta pog'ona;
Sekunda –2 – ikkita pog'ona;
Tertsiya –3 – uchta pog'ona;
Kvarta –4 - to'rtta pog'ona;
Kvinta –5 – beshta pog'ona;
Seksta –6 – oltita pog'ona;
Septima –7 – ettita pog'ona;
Oktava – 8 – sakkizta pog'ona.

Tarkibli intervallar:

Nona –9 – to'qqizta pog'ona, oktava oralab sekunda
Detsima –10 – o'nta pog'ona, oktava oralab tertsiya
Undetsima –11 – o'n bitta pog'ona ---//'--- kvarta
Duodetsima –12 – o'n ikkita pog'ona --// kvinta
Tertsdetsima –13 – o'n uchta pog'ona --//'-- seksta
Kvartdetsima –14 – o'n to'rta pog'ona -/- septima
Kvintdetsima –15– o'n beshta pog'ona -/'- oktava

Ayrim hollarda pog'onalar miqdori bir xil bo'lgan intervallrning tonlar miqdori har xil chiqadi. Interval sifatini aniqroq atash uchun qo'shimcha atamalar qo'llaniladi. Bular: *sof* (*s.* bilan belgilanadi), *katta* (*kat.*), *kichik* (*kich.*), *orttirilgan* (*ort.*), *kamaytirilgan* (*kam.*) kabi yordamchi so'zlar.

2.

Intervallarning aylanishi

[2] *Unison* – (italiyancha *unisono: unus* – bitta, *sonus* - tovush) – ikkita ovozning bitta tovushda qo'shilishi.

Intervalning aylanishi – bu uning asosi bilan cho‘qqisi joylarini almashtirish maqsadida pastki tovushini yuqoriga, yuqorigisini pastka bir yoki bir necha oktavaga ko‘chirishdir (ikkala harakat bir vaqtda bajarilishi ham mumkin).



Natijada dastlabki *intervalning aylanmasi* deb
48 aytiladigan yangi interval hosil bo‘ladi.

Oddiy intervallar aylanishi quyidagi qonuniyatlarga bo‘ysunadi:

1) oddiy interval bilan aylanmasining umumiy hajmi oktavaga teng;
2) ikkala intervalning tonlar miqdori yig‘indisi otkvaning 6 toniga barobar: 2,5 ton + 3,5 ton = 6 ton; 6 ton - 4,5 ton = 1,5 ton;
3) ikkala intervalning pog‘onalar miqdori yig‘indisi 9 ga barobar;

prima 1 + 8 oktava = 9; *sekunda 2 + 7 septima = 9*
tersiya 3 + 6 seksta = 9; *kvarta 4 + 5 kvinta = 9*

4) sof interval sof intervalga aylanadi, katta interval kichikka,

49

Sof. ↔ sof. kich. ↔ kat. Kam. ↔ ort.



kichik –kattaga,
orttirilgan – kamaytirilganga, kamaytirilgan orttirilganga.

3.Diatonik intervallar

Diatonik lad pog'onalari o'rasida hosil bo'lgan intervallar ***diatonik intervallar*** deyiladi. Diatonik intervallar o'z ichida ikkita guruh – *asosiy* va
xarakterli intervallarga ajraladi. ***Asosiy*** intervallar major va minorning tabiiy ko'rinishi pog'onalarida, ***xarakterli*** intervallar esa major va minorning garmonik ko'rinishi pog'onalarida tuziladi. (xarkterli intervallar haqida inchi mavzuda gapiriladi).

Oddiy asosiy (14 ta) intervallarning tonlar miqdori ko'payishi



bo'yicha ketma-ket joylashuvi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan

Asosiy intervallarni musiqaviy tovushqatorning asosiy yoki hosila pog'onasidan yuqoriga yoki pastga tuzish mumkin

4.Xromatik intervallar. Intervallar engarmonizmi.

Xromatik interval orttirilgan va kamaytirilgan intervallarga deyiladi (bular qatoriga uchtonliklar – ort.4 va kam.5, hamda xarakterli – ort.2, kam.7, ort.5, kam.4 intervallar kirmaydi).

+ 0.5 t - + 0.5 t -
kam. ←—→ Sof ←—→ort.

Sof intervallar yarim tonga kengayishi natijasida orttirilgan, yarim tonga qisqarishi natijasida kamaytirilgan interval hosil bo'laldi.

Kichik intervalning yarim tonga qisqarishi natijasida kamaytirilgan, katta intervalning yarim tonga kengayishi natijasida orttirilgan interval tuziladi. Agar katta interval butun tonga qisqaradigan bo'lsa, kamaytirilgan interval hosil bo'ladi, va aksincha kichik interval butun tonga kengaysa, orttirilgan interval vujudga keladi.

+ 0.5 t -	+ 0.5 t -	+ 0.5 t
kam. ←→ kich.	←→ kat.	←→ ort.

Xromatik interval tonlar miqdori bo'yicha albatta birorta asosiy intervalga teng keladi. *Tonlar miqdori bir xil bo'lgan*

47



intervallarning eshitilishi ham bir xil bo'ladi. Bunday intervallarga ***engarmonik teng intervallar deyiladi***. Engarmonik teng intervallarning pog'onalar miqdori esa bir xil yoki har xil bo'lishi mumkin.

5. Konsonans va dissonans intervallari

Diatonik intervallar o'zining *garmonik yangrashi* sifati bo'yicha ***konsonans***[3] (ohangdosh) va ***dissonans***[4] (noohangdosh) intervallarga ajraladi.

Musika nazariyasida **dissonans** bo'lib ***sekunda, septima va uchtonliklar*** (ort.4, kam.5) hisoblanadi. (bularga muvofiq tarkibli intervallar ham nazarda tutiladi). *Keskin dissonanslar* deb kichik sekunda (kich.2q0.5t), katta septima (kat.7q4.5t) va uchtonliklar (ort.4, kam.5) nazarda tutiladi.

---

[3] *Konsonans* – (lotincha *consonantia*) – uyg`un sado.
[4] *Dissonans* – (lotincha *dissonantia*) – uyg`unsiz sado

Yumshoq dissonanslar – katta sekunda (kat.2q1t), kichik septima (kich.7q5t.)

Konsonanslarga qolganlari - ***prima, oktava, kvarta, kvinta, tertsiya, seksta*** lar mansub. *Qattik konsonanslar – sof intervallar*: prima bilan oktava – nihoyat mukammal konsonanslar, hamda kvarta bilan kvinta – mukammal konsonanslar deb hisoblanadi. *Yumshoq konsonanslar* – tertsiya va seksta.

Asosiy tushunchalar: *Interval, pog'onalar miqdori,tonlar miqdori, oddiy va tarkibli intervallar, diatonik va xromatik intervallar, intervallar engarmonizmi, konsonans va dissonans intervallari, intervalning aylanishi.*

III.Xulosa

Tonlar miqdori, ya'ni *sifat kattaligi,* intervalning asosidan cho'qqisigacha ton va yarim tonlikar yig'indisini aytadi.Intervallar o'zining hajmi (zich-kengligi) bo'yicha ikkita guruhga ajraladi:

1) oktava chegarasida hosil bo'lgan ***oddiy intervallar***.
2) oktavadan keng bo'lgan ***tarkibli intervallar***.
Diatonik lad pog'onalari o'rasida hosil bo'lgan intervallar ***diatonik intervallar*** deyiladi.

Interval[5] ikki tovushning balandlik bo'yicha uyg'unlashuvidir.

Interval tovushlari birin-ketin chalinsa ***melodik interval***, bir vaqtning o'zida chalinsa ***garmonik interval***ni hosil qiladi.
. ***Pog'onalar miqdori,*** ya'ni *miqdoriy kattaligi,* interval hajmidan darak berib, u qamrab olgan pog'onalar sonini raqam

[5] *Interval* – (lotincha *intervallum*) – oraliq.

bilan ko'rsatadi hamda interval o'ziga uning pog'onalar soniga muvofiq lotincha nom beradi.

Asosiy intervallar major va minorning tabiiy ko'rinishi pog'onalarida, ***xarakterli*** intervallar esa major va minorning garmonik ko'rinishi pog'onalarida tuziladi.***deyiladi.***

Tonlar miqdori bir

xil bo'lgan intervallarning eshitilishi ham bir xil bo'ladi. Bunday intervallarga ***engarmonik teng intervallar***

Xromatik interval orttirilgan va kamaytirilgan intervallarga deyiladi (bular qatoriga uchtonliklar – ort.4 va kam.5, hamda xarakterli– ort.2, kam.7, ort.5, kam.4 intervallar kirmaydi).

IV.Adabiyotlar

1. *Azimova O.N.* Garmoniya. Nazariy kurs. TOSHKENT., 2000.
2. *Akbarov I.A.* Musiqa lug'ati. Maxsus muharrir T.B.G'ofurbekov. 2- nashri, TOSHKENT., 1997.
3. *Alekseev B.* Zadachi po garmoniiю. M., 1982.
4. *Vaxromeev V.A.* Musiqaning elementar nazariyasi. TOSHKENT., 1983.
5. *Dubovskiy I, Evseev S, Sposobin I, Sokolov* «Garmoniya darsligi». TOSHKENT., 1987Kurs teorii muziki. Muharrir A.L.Ostrovskiy. L., 1978.
6. *Zelinskiy V.* Kurs garmonii v zadachax. M., 1971.
7. *Krasinskaya L., Utkin V.* Elementarnaya teoriya muziki. M., 1983.
8. *Mojjevelov B.* Melodii dlya garmonizatsii. L., 1982.

9. Muzikalniy ensiklopedicheskiy slovar. Bosh muharrir *G.A.Keldish.* M., 1990.
10. *Mutli. A.* Sbornik zadach po garmonii. M., 1986
11. *Myasoedov A.* Uchebnik garmonii M., 1980
12. Osnovi teoreticheskogo muzikoznaniya. Muharrir *M.I.Roytershteyn.* M., 2003.
13. *Ostrovskiy L.A.* Metodika teorii muziki i solfedjio. L., 1970.
14. *Parsegova.* A.P. Muzikalnaya forma. T., 2007.
15. *Raximov Q.* Musiqaning elementar nazariyasi. Ma'lumotnoma. T., 2007.
16. *Skrebkova O., Skrebkov S.* Xrestomatiya po garmonicheskomu analizu. M, 1978.
17. *Sposobin I.V.* Elementarnaya teoriya muziki. M., 1985.
18. *Sposobin I.V.* Musiqa shakli. T. 1985.
19. *Tyulin Yu.N.* Uchebnik garmonii. M., 1988.
20. WWW.Google.uz
21. www.ziyonet.uz